



**IJODKOR INDIVIDUALLIGI VA BADIY IFODA MASALASI
(USMON AZIM IJODI MISOLIDA)**

Toshmamatova Farangiz Ulug`bek qizi

NavDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'z qalbini matnga ko'chira olgan ya'ni go'zal va nozik tashbehlar bilan o'zini she'rlariga singdira olgan, hatto iztirobli she'rlarida ham ichki tik turish kayfiyati yaqqol sezilib turadigan bugungi adabiyotimizning yetuk darg'alaridan biri bo'lgan shoir Usmon Azimning ijodidagi individuallik va badiiy ifoda masalasini tadqiq etdik.*

Kalit so'zlar: *ijodkor, individual uslub, badiiy ifoda, muallif "men"i, "yurakyalang", noodatiy obraz, poetik tafakkur, obrazli fikrlash, ramziy ifoda.*

Аннотация: *В данной статье мы рассмотрели вопрос индивидуальности и художественного самовыражения в творчестве поэта Усмана Азима, одного из великих мастеров современной литературы, который умел переносить свою душу в текст, то есть погружаться в свои стихи с помощью прекрасных и тонких метафор, и чье внутреннее настроение сопротивления отчетливо ощущается даже в его болезненных стихах.*

Ключевые слова: *творческий, индивидуальный стиль, художественное выражение, авторское «я», "сердце", необычное изображение, поэтическая мысль, образное мышление, символическое выражение.*

Annotation: *In this article, we have examined the issue of individuality and artistic expression in the work of the poet Usman Azim, one of the great masters of our modern literature, who was able to transfer his soul to the text, that is, to immerse himself in his poems with beautiful and delicate metaphors, and whose inner mood of resistance is clearly felt even in his painful poems.*

Keywords: *creative, individual style, artistic expression, author's "I", "your heart", unusual image, poetic thinking, figurative thinking, symbolic expression.*

KIRISH: Zamonaviy o'zbek she'riyatini kuzatar ekanmiz, individual uslub va muallif "men"ining faol namoyon bo'lishi ayrim ijodkorlar ijodida ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu ma'noda Usmon Azim she'riyati alohida e'tiborga loyiq. Shu O'zgacha ohang kasb etuvchi asarlari, go'zal ijodiy uslublari bilan ijodining ilk davrlaridayoq kitobxonlar, she'r ixlosmandlari yuragidan chuqur joy olishga ulgurgan so'z san'atkorlaridan biri bo'lgan shoir Usmon Azim she'rlarida ichki kechinmalar tasviri ustuvorlik qiladi va bu tasvirlar orqali nafaqat shaxsiy ruhiy holat, balki muayyan davrning ma'naviy-ruhiy manzarasi o'ziga xos uslubda ifodalanadi. Adabiyotshunos olim Bahodir Karim ta'kidlaganidek: "She'r – tuyg'u suvrati. Unda emotsiya, ramz, obraz, badiiy san'at bo'lishi kerak; she'rda shoir subekti,



individual uslubi, “men”i, ovozi aks etishi lozim...”¹⁰⁴ Usmon Azim ijodini tahlil qilish jarayonida aynan ana shunday holatning guvohi bo'ldik.

Har qanday mavzuda ham o'zini yaqqol ko'satib turuvchi, boshqalardan obraz yaratishdagi farqli jihatlari bilan ajralib turuvchi otaxon shoirimiz Usmon Azimning ijodini tadqiq qilar ekanmiz unda “yurakyalang o'tinlar terayotgan”, “qanotlari kuygan holda baland uchayotgan”, “gulhanga qamalgan iliq tilaklar” ga ega bo'lgan ijodkorning uslubiy individualligini eng kuchli ko'rsatadigan jihatlardan biri - noodatiy obraz yaratish mahorati ekanligini kuzatdik.

Tashqarida bo'raladi qor.

Issiq uyda, oila, choy ich!

Guvullama, yurak. Beozor

O'tga aylan – yonavergin tinch.¹⁰⁵

Mazkur she'riy parcha Usmon Azim ijodiga xos bo'lgan individual poetik tafakkur va uslubiy o'ziga xoslikni yorqin ifodalaydi. Usmon Azim she'riyatiga xos muhim xususiyatlardan biri - ichki kechinmalarni tashqi predmetlar orqali ramziy ifodalashdir. Bu uslubiy prinsip mazkur she'rda ham yetakchi o'rinni egallaydi. Xususan, “yurakyalang o'tin tergan” obrazida shoir o'z ruhiy holatini nafaqat tasvirlaydi, balki uni sezdiradi. “Yurakyalang” so'zi semantik jihatdan kengayib, insonning ruhiy himoyasizligi, ichki iztiroblari va mavjudlikning keskin holatini anglatadi. Bu esa shoir poetikasiga xos bo'lgan ma'no ko'chishi va semantik chuqurlikni tasdiqlaydi.

Shoir ijodida hayotiy jarayonlar ko'pincha ramziy tizim orqali beriladi. “O'tini yo'q saratonlarda” degan tasvir ham ana shunday umumlashitiruvchi obrazlardan biridir. Bu yerda “saron” faqat fasliy holat emas, balki inson hayotidagi og'ir davrlar, ruhiy tanglik va ma'naviy bo'shliqni ifodalovchi keng qamrovli tushunchaga aylanadi. O'tin yig'ish jarayoni esa ijodkorning ichki kurashi, ruhiy energiyani qayta tiklashga bo'lgan intilishi sifatida talqin qilinadi. Demak, shoir real voqelikni ichki ruhiy jarayonlar bilan sintez qilish orqali o'ziga xos poetik makon yaratadi. Falakka o'rlayotgan tutun shoir nazdida uning umrini ham olib ketmoqda. Chunki bu tutun ijodkorning o'tini yo'q saratonlarda tilanib topgani cho'plarning falokati, gulxan esa shoirning yozgi pinxon tilagi edi. Biz tahlil qilgan ushbu she'rda ham shoirning individual poetik dunyoqarashi, obrazli fikrlashi va so'z qo'llashdagi mahorati yaqqol ko'zga tashlanadi.

“Usmon Azim – yorqin harakter sohibi. Uning o'ziga xos qiyofasi, ko'z qarashi va hatto so'zlash ohanggi ham har bir she'rida, qolaversa barcha bitiklarida “manaman” deb ko'rinib turadi. Qiyofasiz ijodkorning o'zi ham, qoralamasiyu so'zi ham birovlarinikiga o'xshaydi. Bordiyu Usmon Azimning bir turkum she'ri imzosiz e'lon qilingan taqdirda ham zukko

¹⁰⁴ Рухият алифбоси / Б.Карим. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-манбаа ижодий уйи, 2016. – 86 Б

¹⁰⁵ Азим, Усмон. Куз: Шерлар. – Т.: Ф. Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр.. 2001. -140 Б.



o'quvchi uni hech adashmasdan payqaydi"¹⁰⁶ deya ta'kidlaydi filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyev.

So'zning ichki ma'nosini yangicha poetik ifodalash mahoratiga ega bo'lgan shoir uslubining yana bir muhim jihati poetik fikrning emotsional-ekspressiv shaklda ifodalanishidir. Uning she'rlarida hissiy kechinma oddiy tasvir orqali emas, balki murakkab poetik umumlashmalar vositasida beriladi. Shu sababli Usmon Azim she'riyati o'quvchini faqat estetik zavqqa emas, balki mushohadaga ham undaydi.

"Iste'dodli odam o'z iste'dodini yanggi ko'rinishda, yanggi rang va ohangda yanggi shaklda, yanggi teranlik va yuksaklikda qayta-qayta isbot qilib turadi. Nafas yetmagan yanggi-yanggi qit'alarni zabt etadi".¹⁰⁷ O'z ijodida ana shunday yanggiliklarga intiluvchi, nafas yetmagan qit'alarni tinimsiz zabt etuvchi Usmon Azim "Bebaxtlikda bu kuzak baxtli!" deb boshlanuvchi she'rida tabiatni kuzatish orqali uni o'zgacha ohangda, individual uslubda obrazlantirdi.

Bebaxtlikda bu kuzak baxtli! -

Tabiat ham qismatga ko'nar.

Bugun hamma-hamma daraxtni

Quchib-quchib yig'lasam bo'lar.¹⁰⁸

Ijod, eng avvalo, kuzatish va his etish san'atidir. Tevarak-atrofdagi hodisalarni, kishilarning xati-harakatlarini kuzatish iqtidoriga ega bo'lmagan kishi hech qachon ijodkor bo'la olmaydi.¹⁰⁹

Yozilayotgan asarlarda u xoh lirik, xoh epik, xoh dramatik asar bo'lsin kimdandir, nimadandir, yoki ma'lum bir hodisalardan ta'sirlanganlik ko'zga tashlanadi. Usmon Azimning ham she'rlarida ayni shu hodisaga duch kelamiz. She'rdagi umrining kuz fasliga yetib kelgan zamonida shoirning anglab yetgan falsafalari o'z aksini topgan. Shuningdek, ushbu she'rdagi pinhona timsollar uchraydi. Biz Usmon Azimni falsafiy yetuk shoir deb aytolamiz. Dunyoning to'pig'ini alangga tutayotgan bo'lsada chidamli, sabrli payg'ambarday bosiq turishligida ham sabr timsoli bo'lgan Ayyub payg'ambarga, to'pig'ini alanga tutayotgan barg obrazida Ibrohim (a,s) payg'ambarga ishora mavjud. Vazminlikka, fidoyilikka yog'rilgan, xasrat bergan xudoyilik bor bo'lgan daraxtlar timsolida ham falsafiylik mavjud. Go'yoki daraxtlardagi bunday sadoqat yer yuziga yuborilgan barcha payg'ambarlarga xos bo'lgan chidam, sabr, toqat kabi fazilatlar kabidir. Bargni tug'day ko'tarib elga bir so'zni targ'ib qilish holatida esa Najmiddin Kubroga, elga targ'ib qilinayotgan so'zda esa Najmiddin Kubroning so'nggi so'ziga "Yo Vatan, yo sharofatli o'lim" degan so'ziga ishora bor. Kuchli tafakkurga ega bo'lgan bugungi adabiyotimizning

¹⁰⁶ Кунгил: шеърият / Усмон Азим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 18 Б

¹⁰⁷ У., Азим Сўнгсўзлар: У.Азим. - Тошкент: Илм-зиё-законат, 2020. – 272-Б.

¹⁰⁸ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 130-Б.

¹⁰⁹ Каримов И. Илҳом чашмасининг ажиб мавжлари. -Т.: Фан, 1982. -Б.8.





yetuk namoyondasi bo'lgan Usmon Azim ijodi ana shunday go'zal kuzatishlar, ajoyib o'xshatishlar, individual poetik g'oya yetakchilik qiladi.

Yurak – ulkan orkestr – chaldi
Bor cholg'uda taslimlik rozin...
Men o'zimni g'ilofga soldim –
Jo'r bo'lmoqqa yetmay ovozim.¹¹⁰

“Dunyo cho'kar mo'tadil holga” deb boshlanuvchi ushbu she'rda har bir she'rda teran mushohada yuritadigan, o'ziga xos individual poetik g'oyalarga ega bo'lgan ijodkor Usmon Azim atrof-muhitdagi detallarni - favvora, teatr va yo'llarda harakatlanayotgan avtomobillarni alohida - ramziy yuklama bilan ifodalaydi. Xususan, favvora obrazida shoirning ichki kechinmalari, uning izlanishlari va ma'naviy to'liqlanishlari mujassamlashgan bo'lsa, teatr hayotning o'ziga xos sahna ekanligini anglatadi. Bu yerda inson o'ziga yuklatilgan rollarni ijro etadi, biroq bu jarayon ko'pincha ichki ziddiyatlar bilan kechadi. Harakatdagi avtomobillar esa vaqtning uzluksiz oqimini, inson hayotining qaytarilmasligini ifodalovchi ramz sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, shoirning yurakni ulkan orkestrga qiyoslashi ham alohida e'tiborga loyiq metaforik ifodadir. Bu tasvir orqali inson qalbida kechayotgan murakkab hissiy jarayonlar, qarama-qarshi tuyg'ular uyg'unligi badiiylashtiriladi. Orkestr obrazida turli ohanglar, turli kayfiyatlar mujassam bo'lgani kabi, inson yuragi ham bir vaqtning o'zida iztirob, umid, taslimlik va kurash kabi holatlarni o'zida jamlaydi.

Bizningcha, mazkur she'riy parchada ilgari surilgan asosiy g'oya insonning harakat orqali mavjudligi, ya'ni faoliyat va maqsad bilan yashashi zarurligi bilan bog'liqdir. Shoir, garchi inson qalbi ba'zan taslimlik ohangiga moyil bo'lsa-da, hayotiy kurashni to'xtatmaslik, og'ir sinovlarga qaramay oldinga intilish lozimligini uqtiradi.

Usmon Azim she'riyatida an'anaviy va zamonaviy poetik unsurlar uyg'unligi natijasida o'ziga xos individual uslub shakllangan bo'lib, bu holat uning ijodini zamonaviy o'zbek adabiy jarayonida alohida fenomen sifatida baholash imkonini beradi. Ijodkor o'zining estetik qarashlari va individual tafakkurini badiiy jihatdan original hamda obrazli topilmalar orqali ifoda etar ekan, aynan shu poetik xususiyatlar uning individual uslubini shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABITOTLAR

- 1.Азим, Усмон. Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. -456 б
- 2.Азим, Усмон. Куз: Шерлар. – Т.: Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр.. 2001. -448 б.

¹¹⁰ Танланган асарлар. 2-жилд / У.Азим. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – 275-б.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



3. У., Азим Сўнгсўзлар: У.Азим. - Тошкент: Илм-зиё-з аковат, 2020. – 512 б
4. Азим, Усмон. Кўнгил / Усмон Азим. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 320 б.
5. Руҳият алифбоси / Б.Карим. – Тошкент: Гàфур Гулом номидаги нашриёт-манбаа ижодий уйи, 2016. – 364 б.
6. Каримов И. Илҳом чашмасининг ажиб мавжлари. -Т.: Фан, 1982. 56 – б.